

## SHARQ TAFAKKURIDA SAMARQAND

**Pardayeva Iroda Mamayunosovna,**

*Samarqand davlat chet tillari instituti*

*Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası v.b.professori*

*E-mail: [pardayevairoda74@mail.com](mailto:pardayevairoda74@mail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sharq adabiyoti va tarixiy tafakkurida Samarqand obrazining ikki muhim siymo - Iskandar va Amir Temur timsollari orqali shakllanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Iskandar obrazining Nizomiy, Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida adolat, ilm, ma'rifat va ideal jamiyat g'oyalari bilan bog'liq ramziy-ma'naviy timsol sifatida talqin etilishi yoritiladi. Shu bilan birga, Amir Temur faoliyati misolida Samarqandning real tarixiy makonda siyosiy, madaniy, me'moriy va ma'naviy markaz sifatida qayta bunyod etilishi tahlil qilinadi. Maqolada Samarqand faqat geografik yoki tarixiy makon emas, balki badiiy tafakkur va tarixiy xotira tutashgan ma'naviy markaz ekani asoslanadi. Natijada Iskandarning ramziy orzusi bilan Temurning amaliy bunyodkorlik siyosati o'rtasidagi g'oyaviy uyg'unlik ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy talqin, tarixiy voqelik, ideal jamiyat, adolat, ma'rifat, hukmdor timsoli, shahar obrazi, Sharq mumtoz adabiyoti.

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительный анализ образа Самарканда в восточной литературе и историческом мышлении через две ключевые фигуры - Искандера и Амира Темура. В исследовании раскрывается, что образ Искандера в произведениях Низами, Джамии и Алишера Навои трактуется как символический и духовный образ, связанный с идеями справедливости, знания, просвещения и идеального общества. Наряду с этим на примере деятельности Амира Темура анализируется процесс реального исторического преобразования Самарканда в политический, культурный, архитектурный и духовный центр. В статье обосновывается, что Самарканд является не только географическим или историческим пространством, но и духовным центром, где пересекаются художественное мышление и историческая память. В результате выявляется идейная гармония между символической мечтой Искандера и практической созидательной политикой Амира Темура.

**Ключевые слова:** художественная интерпретация, историческая реальность, идеальное общество, справедливость, просвещение, образ правителя, образ города, восточная классическая литература.

**Abstract.** This article presents a comparative analysis of the image of Samarkand in Eastern literature and historical thought through two key figures-Iskandar (Alexander the Great) and Amir Temur (Tamerlane). The study reveals that the image of Iskandar in the works of Nizami, Jami, and Alisher Navoi is interpreted as a symbolic and spiritual figure associated with the ideas of justice, knowledge, enlightenment, and the ideal society. At the same time, through the example of Amir Temur's activities, the process of the real historical transformation of Samarkand into a political, cultural, architectural, and spiritual center is analyzed. The article substantiates that Samarkand is not only a geographical or historical space, but also a spiritual center where artistic imagination and historical memory intersect. As a result, an ideological harmony is identified between Iskandar's symbolic dream and Amir Temur's practical and constructive statecraft.

**Keywords:** artistic interpretation, historical reality, ideal society, justice, enlightenment, ruler image, city image, Eastern classical literature.

**Kirish.** Amir Temur tarixiy jarayonda nafaqat yirik siyosiy arbob va harbiy sarkarda, balki markazlashgan davlat asoslarini yaratgan buyuk bunyodkor sifatida alohida o'rin egallaydi. XIV asrda Movarounnahr hududida kuchli imperiya barpo etgan Temur davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash jarayonida, avvalo, siyosiy markazni aniqlash

masalasi jiddiy e'tibor qaratdi. 1370-yilda hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng uning Samarqandni poytaxt sifatida tanlashi tasodifiy qaror emas, balki chuqur strategik, madaniy va tarixiy omillarga asoslangan ongli tanlov edi. Samarqandning geografik jihatdan qulay markaziy joylashuvi, qadimdan shakllangan boy madaniy muhitga egaligi, rivojlangan infratuzilmasi va yuksak me'moriy salohiyati bu tanlovning muhim asoslarini tashkil etdi. Amir Temur ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanib, Samarqandni nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan, madaniyat, falsafa va san'atning yuksak o'chog'iga aylantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Temur tomonidan bunyod etilgan Samarqand tarixiy haqiqat asosida shakllangan yirik sivilizatsion markaz sifatida namoyon bo'ldi. U afsonaviy tasavvurlar doirasidan chiqib, real tarixiy taraqqiyot jarayonida siyosiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy markaz darajasiga ko'tarildi. Shu jihatdan, Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati Samarqandni Sharq sivilizatsiyasining eng muhim markazlaridan biriga aylantirgan tarixiy omil sifatida baholanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosini Sharq mumtoz adabiyoti, tarixiy manbalar hamda zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari tashkil etadi. Samarqand obrazining shakllanishi va taraqqiyoti masalasini yoritishda, avvalo, Sharq adabiy tafakkurida Iskandar timsolining talqinlari muhim manba sifatida o'rganildi. Xususan, Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma"si, Abdurahmon Jomiyning "Xiradnoma-yi Iskandariy" asari hamda Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni ushbu tadqiqotning asosiy badiiy manbalari sifatida tahlil qilindi. Mazkur asarlarda Iskandar obrazi tarixiy shaxs sifatida emas, balki adolatparvar, ilmparvar va ma'naviy kamolotga intilgan ideal hukmdor timsolida talqin etilishi bilan ajralib turadi. Adabiyotlar tahlili jarayonida antik manbalar - Diodor Sitsiliy, Kvint Kurtsiy Ruf, Plutarx va Arrian kabi mualliflarning asarlariga ham murojaat qilindi. Ushbu manbalar Iskandarning tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasini tiklashda muhim bo'lsa-da, Sharq adabiyotida uning badiiy-ramziy talqini mutlaqo yangi ideallashtirilgan mazmun kasb etgani kuzatildi. Shu jihatdan tadqiqotda tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o'rtasidagi o'zaro munosabat alohida e'tiborga olindi. Amir Temur faoliyati bilan bog'liq adabiyotlar tahlilida "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Nizomiddin Shomiy asarlari, shuningdek, zamonaviy tarixchilar va sharqshunos olimlarning tadqiqotlari asos qilib olindi. Ushbu manbalar orqali Samarqandning XIV–XV asrlarda siyosiy markaz sifatida tiklanishi, uning me'moriy qiyofasi, ilm-fan va madaniyat markaziga aylanish jarayoni ilmiy asosda tahlil qilindi. Natijada Samarqand obrazi faqat badiiy tasavvur mahsuli emas, balki real tarixiy bunyodkorlik natijasi sifatida ham shakllangani aniqlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi kompleks xarakterga ega bo'lib, unda qiyosiy-tarixiy, tipologik, hermenevtik va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali Iskandar va Amir Temur timsollari o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, Samarqand obrazining ikki xil - ramziy va real shakllanish

bosqichlari yoritildi. Tipologik yondashuv asosida hukmdor obrazi va shahar obrazi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli ravishda tahlil qilindi.

Talqin (interpretativ) metod yordamida badiiy matnlardagi ramziy qatlamlar, xususan, Iskandar orqali ifodalangan ideal jamiyat, adolat va ma'rifat g'oyalari chuqur tahlil etildi. Konseptual tahlil esa "ideal hukmdor", "ideal shahar" va "ma'naviy markaz" kabi asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

**Tahlillar va natijalar.** Iskandar va Temur obrazlari orasida umumiyliklar va tafovutlar mavjud. Ikkalasi ham Samarqandga e'tibor bergan, uni yuksak maqomda tasavvur qilgan yoki shakllantirgan. Iskandar obrazida bu badiiy timsol orqali amalga oshirilgan bo'lsa, Temur esa buni tarixiy reallikda amalga oshirgan. Iskandar Samarqandni haqiqat, adolat, ilm va ruhiy yuksalish shahri sifatida qurdiki – bu ramziy yondashuv. Temur esa aynan shu qadriyatlarni amalda joriy etib, shaharga "jon kiritdi".

Iskandar obrazidagi Samarqand orzular shahridir. Bu shahar dostonlarda, tasavvufiy asarlarda, afsonalarda yashaydi. Temurning Samarqandi esa tarixiy faktlar, arxeologik dalillar, tarixiy yodgorliklar orqali yashaydi. Biroq bu ikki obraz bir-birini to'ldiradi. Temur Iskandar orzusining amalga oshuvchisi, Iskandar esa Temurning amaliyotiga ilhom bergan timsoldir. Shunday qilib, Samarqand obrazi tarixiy va badiiy tafakkurning qo'shilish nuqtasiga aylanadi. U nafaqat bitta davrning yoki bitta shaxsning timsoli, balki asrlar davomida yetishgan ideal jamiyat haqidagi tasavvurlarning mujassamidir. Bu obraz bizga o'z tariximizni qadrlash, o'zligimizni anglash va kelajakka ma'naviy boyluklar bilan yuzlanish uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Iskandar va Temur shaxslari turli davr va manbalarda tasvirlanganiga qaramay, ularning Samarqandga munosabati umumiy tarixiy-falsafiy g'oyaga asoslangan. Iskandar miloddan avvalgi IV asrda yashagan yunon sarkardasi sifatida tarixiy shaxs bo'lsa-da, Sharq adabiyotida u afsonaviy obrazga aylantirilgan. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy, Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar uning siymosini adolat, ilm, ma'rifat, kuch va ilohiy iroda bilan bog'liq timsol sifatida tasvirlaydi. Iskandar haqidagi dostonlarda u faqat jangchi emas, balki adolatli podsho, faylasuflar bilan suhbatlashuvchi dono inson sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, "Iskandarnoma" dostonida u Yevropa va Osiyo oralig'ida ideal jamiyat yaratishga intilgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Bu obraz orqali adolatli jamiyat qurish, ilmni ulug'lash, tartib va qonunlar o'rnatish g'oyalari ilgari suriladi.

Amir Temur esa XIV asrda yashagan tarixiy shaxsdir. Uning hayoti va faoliyati ko'plab tarixchilarning asarlarida yoritilgan. Xususan, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hondamir, Bobur va hatto g'arb olimlari Baverij va Bartoldlar Temur faoliyatini tafsiliy yoritgan. Bu manbalarda Temurning davlat qurishdagi strategiyasi, ilm-fanga e'tibori, siyosiy islohotlari, diniy-ma'naviy qadriyatlarni tiklashga bo'lgan harakatlari atroflicha yoritilgan. Temur real siyosiy shaxs sifatida butun Sharqdagi davlatlar orasida o'z ta'sirini o'rnatishga, kuchli, markazlashgan davlat barpo etishga harakat qilgan. Iskandar obrazi ko'proq ramziy, ideal jamiyatni gavdalantiruvchi timsol

bo'lsa, Temur obrazi tarixiy haqiqatlarga asoslangan, siyosiy-amaliy faoliyat bilan ajralib turadi. Biroq bu ikki obrazning Samarqandga munosabati orqali ko'zlangan maqsad – adolatli jamiyat va ma'rifat markazi yaratish bo'lgan. Shuning uchun bu ikki siymoni qiyoslash orqali, biz tarixiy ong va badiiy tafakkurda Samarqand qanday ideallarning timsoli bo'lganini anglaymiz. [2.213]

Adabiy-falsafiy dostonlarda Iskandar obrazining Sharqqa yurishlari nafaqat harbiy g'alabalar yoki geosiyosiy ustunlik timsoli sifatida, balki ma'naviy, axloqiy va intellektual uyg'onish ramzi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, sharq adabiyotida, jumladan, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy va Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlarning "Iskandarnoma" turkumidagi asarlarida bu obraz chuqur falsafiy yuklama kasb etadi. Ularda Iskandarning Samarqandda shahar barpo etgani tasvirlanadi, ammo bu tasvir tarixiy haqiqatdan ko'ra ko'proq ramziy, ideallashtirilgan g'oyaviy struktura bilan yo'g'rilgan.

Xususan, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar qadimgi butparastlik markazlari ustiga yangi jamiyat qurish, unda ilohiy adolat, aql va hikmat hukmron bo'lishi kerak degan g'oya bilan harakat qiladi. Navoiy bu orqali Iskandarning tarixiy emas, balki axloqiy va ruhiy missiyasini ilgari suradi. Dastonda aytilishicha, Iskandar o'z yurishlari davomida qabilaviy urf-odatlariga qarshi kurashadi, soxta aqidalarni inkor etadi, ilm ahlini jamlab, qonunlar joriy etadi, shaharlar quradi va ularni ma'rifat, adolat hamda fazilat markaziga aylantirishga intiladi. Samarqand bu jarayonning markaziy maydoni sifatida namoyon bo'ladi [3.214].

Shuningdek, Nizomiy Ganjaviy o'zining "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" dostoni (umumiy nomi - "Iskandarnoma")da Iskandarning g'ayrioddiy fazilatlarini, donishmandlikka bo'lgan intilishini va shaharsozlikdagi rolini keng yoritadi. Nizomiyda Samarqand to'g'ridan to'g'ri tilga olinmasa-da, Iskandarning Sharqdagi qurilishlari va ularning ichki falsafiy ma'nolari orqali aynan bu shahar ideallashtirilgan uyg'unlik maskani sifatida talqin qilinadi [4.243]. Abdurahmon Jomiy esa "Xiradnoma-i Iskandariy" asarida Iskandarning shaharcha qurish faoliyatini shunchaki urbanistik jarayon emas, balki komil insoniyat uchun zarur bo'lgan axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar tizimini joriy etish vositasi sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, bu shaharlar faqat moddiy me'morchilik mahsuli bo'lmay, balki hikmat, haqiqat va ma'rifat ramzi sifatida yaratilgan[1.154].

Shu tariqa, adabiy dostonlarda Iskandar tomonidan Samarqandning qurilishi real tarixiy fakt sifatida emas, balki ilohiy tartibni barpo etish, aqidaviy birlikni mustahkamlash, jamiyatni ilohiy qonun asosida boshqarish g'oyasining timsoli sifatida talqin etiladi. Bu shahar timsoli nafaqat geografik hudud, balki kosmik va metafizik darajadagi "ma'naviy markaz"ga aylantiriladi. Natijada, Iskandar obrazining faoliyati orqali Samarqand badiiy-falsafiy timsol darajasiga ko'tarilib, Sharq sivilizatsiyasining ramziy markazlaridan biriga aylanadi.

Iskandarning Samarqandni barpo etish sababi faqatgina harbiy-strategik yoki siyosiy maqsadlar bilan emas, balki chuqur **axloqiy-mafkuraviy** asoslar bilan bog'liq ekani Sharq mumtoz adabiyotida alohida ta'kidlanadi. Bu jarayon, avvalo, insoniyatga ma'naviy uyg'onish, ilm va hikmat, adolat va fazilat kabi yuksak qadriyatlarini singdirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarning shaharlarga, xususan, Samarqandga – nisbatan munosabatini faqat g'alaba va hukmronlik timsoli emas, balki **madaniy-ma'naviy yuksalish** vositasi sifatida tasvirlaydi. Iskandar qadim butparastlik izlarini yo'q qiladi, uning o'rnida **aqidaviy birlik, ilmiy-ma'rifiy rivojlanish** asoslarini barpo etishga kirishadi. Bu orqali u **jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashuvchi** mutafakkir siymosida gavdalanadi.

Sharq mumtoz tafakkurida bu obraz Qur'oni karimda zikr etilgan **Zulqarnayn** siymosiga hamohang tarzda yoritiladi [5.302]. Islom falsafasida Zulqarnayn insoniyat orasida adolat va tartib o'rnatgan ilohiy elchi sifatida talqin qilinadi. Navoiy ham Iskandarning faoliyatini shu ruhda aks ettirib, uni **ilohiy ilhomga tayangan, axloqiy jihatdan mukammal rahbar** sifatida tasvirlaydi. Bu o'rinda Iskandar qurgan Samarqand shunchaki moddiy markaz emas, balki **ruhiy va falsafiy uyg'onish manbai** sifatida gavdalanadi.

Shuningdek, **Nizomiy Ganjaviyning** "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" dostonlarida Iskandar tomonidan shaharlar bunyod etilishi **fazilatli jamiyat qurish g'oyasi** bilan bog'lanadi. Nizomiy Iskandarning shahar barpo etish faoliyatini jismoniy mehnat emas, balki **aqliy va axloqiy me'yorlar asosida tashkil etilgan ijtimoiy tuzum timsoli** sifatida ko'rsatadi.

Yana bir muhim manba – **Abdurahmon Jomiyning** "Xiradnomayi Iskandariy" asarida Iskandar obrazining mazkur jihatlari yanada chuqurroq yoritiladi. Bu doston Iskandarning dunyoqarashi, hikmatga intilishi, donishmandlar bilan muloqoti va ilohiy haqiqatni anglash sari bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi. Jomiy asarida Samarqand obrazini bevosita tilga olmasa-da, Iskandarning shaharlar qurishi va tartib o'rnatishi doimiy ravishda **axloqiy-ma'rifiy tamoyillar asosida talqin qilinadi**.

Iskandar tomonidan Samarqand qurilishi nafaqat tarixiy jarayonning badiiy aksi, balki **Sharq falsafasi, islom tafakkuri va mumtoz adabiyotda** shakllangan **ideallashtirilgan hukmdor** timsolining yuksak ifodasidir. Bu obraz orqali shahar – **ilohiy ilhom, ruhiy poklanish va jamiyatda adolat tamoyillari ustuvor bo'lgan ideal makon** sifatida talqin qilinadi.

Amir Temur tarixiy an'analarni tiklash bilan kifoyalanmay, Samarqandni yangi bosqichga olib chiqdi. U shaharning me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirib, uni "dunyoning ziynati va zebosi"ga aylantirishga intildi. Temurning siyosiy dasturidagi muhim maqsadlardan biri - markazlashgan davlat qurish, uning mafkuraviy, madaniy va ilm-fan asoslarini mustahkamlash bo'lgan. Bu jarayonda Samarqand nafaqat ma'muriy markaz, balki ilm, san'at va hunarmandchilik markaziga ham aylantirildi.

Amir Temur o‘z siyosiy dasturini amalga oshirishda xalqaro madaniy aloqalarni faol ravishda rivojlantirdi. U Hindiston, Xitoy, Eron, Iroq, Suriya, Arabiston va Anatoliyadan zodagonlar, olimlar, muhandislar, me‘morlar, hunarmandlar va shoiralarni Samarqandga olib kelib, shaharni o‘z davrining ilg‘or madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Xususan, Sheroz, Bag‘dod, Hirot, Damashq va Qohira kabi shaharlardan kelgan ziyolilar Temurning huzurida homiylik topdilar. Masalan, Temurning ilmiy-mafkuraviy qarashlari va davlat boshqaruvi tajribasi “Tuzuki Temuriy” (Temurnoma) asarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u keyingi avlodlar uchun ham davlat qurilishida namuna bo‘lib xizmat qilgan.

Temurning davlat mafkurasida ilm-fan, ma‘rifat va dinning uyg‘unligi muhim o‘rin tutgan. Bu qarashlar uning naslidan chiqqan ulkan allomalar –Mirzo Ulug‘bek kabi shaxslarning faoliyatida ham o‘z aksini topdi.

Shu tariqa, Temurning Samarqandni tanlashi va uni qayta qurishga yo‘naltirilgan islohotlari –nafaqat strategik, balki ma‘naviy va mafkuraviy asoslarga tayangan, islom sivilizatsiyasini tiklash va uning markazini barpo etishga qaratilgan keng qamrovli loyiha bo‘lgan.

Samarqand Temur saltanatining yuragi, ya‘ni siyosiy va ma‘naviy markaziga aylangan. Bu yerda Bibi Xonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Registon maydoni kabi yodgorliklar barpo etilgan. Temur ilohiylik va siyosiy kuchni uyg‘unlashtirish orqali Samarqandni shunchaki markaz emas, balki sivilizatsiya o‘chog‘iga aylantirdi. U bu shahar orqali o‘z hukmronligi mafkurasini butun dunyoga namoyish etdi. Temurning Samarqandga bo‘lgan munosabati Iskandarnikidan tubdan farq qiladi u ramziy emas, real ijtimoiy-siyosiy strategiyaga asoslangan. Lekin maqsad bir - jamiyatni tartibga solish, ilmni rivojlantirish va adolatni qaror toptirish. Shu jihatdan Iskandar va Temur maqsadi uyg‘un: biri ramziy-ma‘naviy yondashuvda, ikkinchisi esa amaliy-tarixiy asosda Samarqandga yuksak maqom beradi.

Iskandar va Temur obrazlari orqali Samarqandga nisbatan yondashuv ikki xil, ammo maqsad jihatidan o‘zaro uyg‘undir. Iskandar dostonlarda ideal jamiyat qurishga urinadi, bu orqali ilm-ma‘rifat, adolat, qonun ustuvorligi singari tamoyillarni ilgari suradi. U shahar qurishni ramziy hodisa sifatida ko‘radi. Temur esa tarixiy asosda bu g‘oyani real hayotga tadbiiq etadi. U Samarqandni haqiqatda tiklaydi, zamonaviylashtiradi, ilm-fan va ma‘rifatga asoslangan jamiyat quradi. Iskandarning Samarqandi ideal, afsonaviy obrazda, insoniyat orzularining timsoli bo‘lsa, Temurning Samarqandi real hayotdagi yuksak sivilizatsiya markazidir. Usta va olimlarni jalb qilish, ijtimoiy tuzumni mustahkamlash, davlat idoralarini rivojlantirish, diniy va dunyoviy muassasalarni barpo etish orqali Temur bu shaharda ideal tizim yaratishga erishgan. Iskandar obrazi xalq og‘zaki ijodi va adabiy asarlar orqali shakllangan bo‘lsa, Temurning faoliyati hujjatlar, tarixiy solnomalar va yodgorliklar orqali dalillangan. Lekin har ikkala siymo ham Samarqandni o‘zining yuragi,

kuchi va g'oyaviy markazi sifatida ko'radi. Iskandar bu shaharda ilohiy tartib o'rnatmoqchi bo'lsa, Temur uni adolat tizimining real markaziga aylantirgan.

**Xulosa.** Tarixiy va adabiy manbalarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, Samarqand har doim ham ideal, ham real yuksaklikning markazi bo'lib kelgan. Iskandar obrazida u adolat, ilm, falsafa va aqidaparastlikka qarshi kurash timsoli sifatida gavdalanadi. Bu shahar orqali adolatli jamiyat g'oyasi ilgari suriladi. Temur esa bu g'oyani tarixiy sharoitda amaliyotga tatbiq etgan. U o'z saltanatining yuragi sifatida Samarqandni siyosiy va madaniy markazga aylantirgan. Shunday qilib, Iskandar va Temur o'rtasidagi bog'liqlik faqat tarixiy emas, balki g'oyaviy va ma'naviy asosga ega. Iskandarning ramziy shahri - Temur qurayotgan real jamiyatning ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi falsafiy tafakkur, Temurning "Tuzuklar"ida ifodalangan siyosiy tafakkur bilan uyg'unlashadi. Bu uyg'unlik orqali Samarqand tarixiy-madaniy merosning timsoli sifatida nafaqat o'tmishda, balki hozirgi davrda ham o'z qadr-qimmatini saqlab qolmoqda. Shu boisdan, Iskandar orzusi Temur amaliyotida o'z aksini topgan, Samarqand esa bu ikki siymoning maqsad uyg'unligining tarixiy guvohi bo'lgan shahardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djamiy A. Xirad-name-yi Iskandari. – Dushanbe: Irfon, 1989. – 223 b.
2. Diodor Sikuliy. Tarixiy kutubxona. XVII kitob. – Toshkent: Akademyashr, 2010. – 512 b.
3. Навоий А. МАТ 7 жилд. Садди Искандарий. – Тошкент: Фан, 1991. – 560 b.
4. Nizomiy Ganjaviy. Iskandar-name: Sharaf-name i Iqbol-name. – Baku: Elm, 1983. – 496 b.
5. Qur'oni karim. Ma'nolarining tarjimasi / tarjima va izohlar muallifi A. Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. – 617 b. – B. 302–303.